



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТИИК НУУЗ

АКТА НУУЗ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2025
1/4/1**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m.f.d., professor.

SHIRINOVA R.X. – fil.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Suleymanov R.X. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Musayev N.U. – t.f.d., prof.

Urakov D.J. – t.f.d., prof.

Xolikulov A.B. – t.f.d., prof.

Yermetov A.A. – t.f.d., prof.

Zuyev A.S. – t.f.d., prof.

Jesus Fuensanta. – t.f.d., prof

Muxamedova D.G. – psix.f.d., prof.

Karamyan M.X. – psix.f.d., prof.

Rasulov A.I. – psix.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Sobirova U.F. – sots.f.d., prof.

Xudaykulov H.J. – ped.fan.d., prof.

Miroslav Ballay – PhD, prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sadullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Abdurahmonova N.Z. – fil.f.d., prof.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., dots.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2025

Rustamov R. Targ'ibotning zamonaviy jamiyatdagi roli.....	178
Sagindikov J. Yoshlarning ma'naviy yuksalishi va komil inson bo'lib tarbiyalanishida milliy g'oyaning falsafiy ahamiyati.....	181
Tadjibayev Z. Jamiyatda ijtimoiy apatiya fenomeni: sabablar va oqibatlar.....	184
Tuganova L. Yurist kasbiy faoliyatida adolat etikasi va uning jamiyatda integratsiya jarayoniga bo'lgan e'tibori.....	187
To'rayeva N. Xalq rivoyatlari orqali talabalarda milliy qadriyatlarni va madaniyatni targ'ib qilish metodikasi.....	189
Turdaliyeva U. Pedagogik interaktiv treninglar orqali bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish.....	191
Turemuratova A. Zamonaviy ta'limda ko'p vektorli pedagogik yondashuvlar asosida o'quvchilarning kollektiv ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy mexanizmlari.....	194
Tursunova S. Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi.....	197
Tuxtaxojayev X. Pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi jismoniy madaniyat mashg'ulotlarida individuallashtirish darajasini aniqlash.....	199
Umarqulov X., Allambergeneva P. Empowering children's world outlook through media literacy and educational journalism.....	203
Urazov A. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tadqiq etilishi.....	206
Utamuradov A. Yangi O'zbekiston barqaror taraqqiyotining ayrim ijtimoiy-siyosiy omillari.....	209
Farmonov O'. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashni tashkil etish mazmuni.....	213
Xayrullayeva Z. Shaxsga ijtimoiy guruhlar ta'sirining psixologik mexanizmlari va ijtimoiy bosimning nazariy talqinlari.....	216
Xonkulov U. Trigonometrik tenglamalarning berilgan oralikka tegishli ildizlarini topish usullari.....	219
Xujayev M. Отношение Мирзо Улугбека к философии.....	223
Xujayarova N. Inklyuziya global ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida.....	226
Xaidarov R. Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasi va yangi O'zbekistonda ma'naviy-madaniy hayot uyg'unligi.....	229
Hamrayev S. Mamlakatimizning hozirgi davrdagi yangilanishi jarayonida mulkdorlik tamoyillarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	232
Egamberdiyev J. Onlayn o'yinlar – o'spirin shaxsi kamolotini sekinlashtiruvchi omil sifatida.....	235
Erjanova G., Raxmatulloyeva S. Shaxsning xulq-atvori, qadriyatlari, dunyoqarashi, shaxsiy rivojlanishi va boshqa odamlar bilan munosabatlarni shakllantirishda oila tuzilishining roli.....	238
Eshbekov B. Siyosiy kommunikatsiya va internet kommunikatsiyasi: siyosiy-nazariy yondashuv.....	241
Yusupova N. Reforms to improve the quality of higher education today – as a factor of social development.....	244
Yusupova N. O'zbek etnomusiqasining estetik mohiyatining asosiy jihatlari.....	247
Filologiya	
Авлакулов Я. Лингвистическое изучение материала собственных имён узбекского языка.....	250
Alautdinova K., Ganiyeva D. “Exploring linguistic markers of gender: a comprehensive analysis”.....	253
Allayarova M. Badiiy ijodkorlik jadidlarning milliy o'zlikni anglashning ma'naviy quroli sifatida.....	256
Anvarova F. Den Brauning “Farishtalar va iblislar” asarida qo'llanilgan “Hell” va “Damn” so'zlarining semantik tahlili.....	259
Achilova G. Ona obrazining o'zbek va jahon adabiyotidagi tarixiy ildizlari.....	262
Bozorov O. Iqbol Mirzoning “Bonu” romanida tarixiy – ijtimoiy voqelik tasvirining o'ziga xosligi.....	265
Бурниева Р. Этапы развития образа ребёнка в узбекской литературе (советский период, период независимости).....	268
Davletova Sh. Ramz, majoz, timsol birligining badiiy asar strukturadagi o'rni.....	271
Davronova N., Alautdinova K. Analysis of linguistic practices in transport announcements.....	273
Zaripova D. “Digital technologies: how a university's website and brand shapes its reputation and ranking”.....	276
Ismailova K. Elements influencing the development of creative thinking and poetic interpretation.....	279
Kuchkarov I. Tilshunoslikda ekstralingvistik omil asosida so'z o'zlashtirish.....	282
Qozoqboyeva D. Turli tizimli tillarda lor terminlarining xalq va ilmiy tilda qo'llanilishi va farqlari.....	285
Qurbonova Sh. Jahon adabiyotida urush va jang tasvirlari yo'qotilgan avlod konsepsiyasi.....	288
Mardanov U. Oydin Hojiyeva she'rlarida qo'llangan sohaviy terminlar lingvopoetikasi (ma'danshunoslik terminlari asosida).....	291
Maxamatxo'jaeva G. Baynalmilal so'zlarning tarjima muammolari (ingliz, o'zbek va rus tillari misolida).....	294
Mirzabayev S. Qoraqalpoq Esse matnlarida metaforalarning uslubiy xususiyatlari.....	296
Mirzayeva S. Mimemik matn tushunchasi va uning lingvistik xususiyatlari.....	299
Nurutdinova M. Onlayn mediani o'rganishda meta tahlil amaliyotidan foydalanish.....	302
Ro'ziyev Q. O'zbek tilida taom va non komponentli iboralarning lingvomadaniy tahlili.....	305
Rustamova Sh. Tilning madaniy kontekstdagi roli (tarjimada).....	308
Salisheva Z. O'zbek tilini xorijliklarga o'qitishda audio-video materiallardan foydalanish.....	311
Солнева М. Некоторые фонетические явления слов в английском и узбекском языках.....	314
Tog'aymurodova S. Ingliz tilidagi muqobilsiz leksikaga oid so'zlarni o'rganishdagi muammolar.....	317
Tursunova S. Erkin A'zamning “Shoirming to'yi” qissasida ifodalangan ironiyalar tahlili.....	320
Faxritdinova D. Tabrik nutqiy aktining vazifaviy-uslubiy tadqiqi.....	323
Xidirova M. Ingliz tilidagi yovvoyi sudralib yuruvchi hayvonlar nomlarining lingvistik va statistik tahlili.....	326
Xolboyev M. O'zbek tilida o'zlashma so'zlar tavsifi.....	329
Hamzayeva Z. “Tess d'urbervillar” va “Bonu” romanlarida sof va jamiyatda ustuvor axloqiy tamoyillar ziddiyati.....	332
Choriyeva R. Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asari leksikasining o'rganilish tarixidan.....	334
Shokirova D. Qiz bolalar nutqining leksik-semantik xususiyatlari.....	336
Shukurova S. Sharq va g'arb adabiyotida suitsid shakllari va ularning qiyosiy falsafiy-estetik tahlili.....	339
Ergashova B., Maugeri G. Til o'rganishning ikki muhim omili: oliy ta'lim talabalarining tajribasi.....	342
Yuldashev E. Komil Xorazmiy ijodidagi o'xshatishlar tahlili.....	345



UDK:324

Luiza TUGANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
o'qituvchisi

Dotsent F.Maxmudov taqrizi asosida

ATTENTION TO THE ETHICS OF JUSTICE IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A LAWYER AND ITS INTEGRATION PROCESS IN SOCIETY

Annotation

The principles of justice of society are considered one of the greatest achievements of the historical process and are based on relationships that have been formed and refined over the centuries. Today, we are fighting for the legal norms that are considered important to be reflected not only as a well-known legal document, but also as a truly recognized concept in society. The relevance of this important topic is aimed at preventing conflicts of interest in ethical relationships in the process of professional activity of representatives of the legal sphere.

Key words: Lawyer, profession, ethics, standards, principles, competence, human, honesty, justice, activity.

ВНИМАНИЕ К ЭТИКЕ ПРАВОСУДИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЮРИСТА И ПРОЦЕСС ЕЕ ИНТЕГРАЦИИ В ОБЩЕСТВО

Аннотация

Принципы справедливости в обществе считаются одним из величайших достижений исторического процесса и основываются на отношениях, которые формировались и совершенствовались на протяжении веков. Мы боремся за то, чтобы правовые нормы, которые сегодня считаются важными, признавались не только как юридические документы, но и как действительно признанные концепции в обществе. Актуальность этой важной темы обусловлена необходимостью предотвращения конфликта интересов в этических отношениях при осуществлении профессиональной деятельности юристами.

Ключевые слова: Юрист, профессия, этика, стандарты, принципы, компетентность, человек, честность, справедливость, деятельность.

YURIST KASBIY FAOLIYATIDA ADOLAT ETIKASI VA UNING JAMIYATDA INTEGRATSIYA JARAYONIGA BO'LGAN E'TIBOR

Annotatsiya

Jamiyatning adolat tamoyillari tarixiy jarayonning eng katta yutiqlaridan hisoblanib, asrlar davomida shakllangan va sayqallangan munosabatlarga asoslanadi. Bugun muhim hisoblangan huquqiy me'yorlar nafaqat ma'lum qabul qilingan huquqiy hujjat sifatida, balki haqiqatdan ham jamiyatda tan olingan tushuncha tariqasida nomoyon bo'lishi uchun kurashmoqdamiz. Muhim hisoblangan ushbu mavzuning dolzarbligi yuridik soha vakillarining kasbiy faoliyati jarayonida axloqiy munosabatlarning manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratiladi.

Kalit so'zlar: Yurist, kasb, axloq, me'yor, tamoyil, kompetensiya, inson, halollik, adolat, faoliyat.

Kirish. Jahonda amalga oshirilayotgan asosiy islohotlarning asl ma'nosi albatta adolat g'oyasiga yo'g'rilgan maqsadlarni jamlagan holda, zamonaviy siyosiy va axloqiy munosabatlarni integratsiyasi yordamida jamiyatga taqdim etilishi, yurist faoliyatiga bo'lgan ishonchni yanada oshishini tashkil etishdan iborat. Adolatli jamiyat-mustahkam jamiyat unda mavjud munosabatlarning barchasi ana shunday yondashishlarlar mevasi ekanligini yaxshi bilamiz. Har qanday faoliyat bilan bog'liq munosabatlar zahirada axloqiy munosabatlar muhim sanalib, ularga asosan rivoj topadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Axloq – insonning ichki dunyosi, ma'naviy olamining namoyon bo'lishi. Yuristning kasbiy faoliyatidagi adolat axloqi – bu turli xil huquqiy vaziyatlarda yuristning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi axloqiy va kasbiy normalar majmui hisoblanib, yurist faoliyatini jamiyatda anglanishiga olib keladi. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilish, shuningdek, umuman yuridik tizimga ishonish yuridik soha vakilining axloqiy tamoyillariga bog'liq. Yurist kasbi yuqori darajadagi mas'uliyat va adolatga sodiqlikni talab qiladi, bu nafaqat qonunchilikni chuqur bilishni, balki yuqori axloqiy me'yorlarga muvofiq harakat qilish qobiliyatini ham anglatadi. Axloqiy me'yorlar mijozlar va hamkasblar bilan muloqot qilishdan tortib, ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya qilish va manfaatlar to'qnashuvini hal qilishgacha bo'lgan keng ko'lamli masalalarni qamrab oladi. Ushbu jihatlarni o'rganishga kirish huquqini muhofaza qilish, amaliyotida adolat va qonuniyligni ta'minlaydigan mexanizmlarni chuqurroq tushunish, globallashtirish va texnologiyalarni rivojlantirish yuridik soha vakillari oldida turgan eng asosiy maqsadga aylanmog'i lozim.

Yuridik tarmoqda odillik prinsipini birinchi o'ringa qo'yish, uni o'rganish yuristning kasbiy faoliyatini baholash mezonlarini belgilashga imkon beradi, bu esa yuridik xizmatlar sifatini oshirishga va jamiyatda huquqiy ongni mustahkamlashga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. I.Kant o'z ta'limotida ijtimoiy taraqqiyot yo'lidagi asosiy g'ovni yengib o'tish ijtimoiy – siyosiy o'zgarish bilan emas, balki axloqlikni kuchaytirish orqali taraqqiyotga erishish ro'y beradi, degan xulosaga keladi.[2] Yurist etikasi – yuridik kasb vakillarining xatti-harakatlarini tartibga soluvchi axloqiy me'yorlar va kasbiy standartlar to'plami. O'z navbatida davlatimizda uning asosiy me'yorlarining qabul qilinganligi, bu mavzuga jiddiy yondashilganidan dalolat beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashining 2018-yil 29-yanvardagi 490-son qarori bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashining 2024-yil 15-maydagi 1903-son qarori bilan tasdiqlangan "Sudyalari odobi kodeksi"[1], O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining 2013-yil 27-sentabrdagi qarorining 8-ilovasiga asosan qabul qilingan "Advokatning kasb etikasi"[2] kabi muhim hujjatlar qabul qilinganligining o'zi aynan yuridik soha vakillarining kasb etikasiga bo'lgan e'tibordan dalolat beradi.

Yurist axloqining asosiy vazifasiga yuzlanadigan bo'lsak, unda huquqiy tizimga ishonchni saqlab qolish va adolatni ta'minlashdir. Zero, adolat g'oyasi bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas. Insoniyat tarixida barcha faylasuflar ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish muammolarini asrlar davomida tadqiq qilib kelganlar. Ammo, bu muammoning amaliy hal etilishi bilan bog'liq jarayonlar juda katta qiyinchiliklar bilan bo'lgan.

Qadimiyat mutaffakirlari Zardusht, Moniy, Mazdak, Aflotun, Arastu va boshqa ko'plab falsafiy qarash olimlari adolat muammolariga juda kata e'tibor qaratganlar. Jumladan, Arastuning ijtimoiy adolat muammolari haqidagi axloqiy tamoyillari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning "Nikomax axloqi" asarida huquqiy munosabatlarning insonparvarlik asosida qurilishi adolatga qaratiladi. Arastu o'z navbatida adolatni inson ozodligi konsepsiyasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi. Garchi allomaning ijtimoiy adolat haqidagi fikrlarida munozarali jihatlar bo'lsada, ammo qadimgi davr falsafasida adolat tamoyillarining o'sha davr uchun eng mukammal konsepsiyasini Arastu ishlab chiqqanligini e'tirof etishimiz kerak.

Epikur ham adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik muammolarini ko'p tahlil qilgan mutafakkirlardan sanaladi. Epikur adolatning ikki xil tabiatini belgilab o'tadi. Birinchi qarashi, tabiiy, asliy adolat. Ikkinchi qarashi insonlar o'rtasida huquqiy va axloqiy me'yorlar asosida tarkib topadigan munosabatlardagi adolat tamoyillari.

Yurist kasbiy faoliyatida asosiy vazifa adolatni ta'minlashga qaratiladi. Uni ta'minlashga esa halollik, vijdonlilik, va huquqiy jarayonning barcha ishtirokchilarining huquqlarini hurmat qilishning yuqori standartlariga rioya qilmasdan erishish mumkin emas. Kasbiy faoliyatda yurist axloqining ahamiyati shubhasizdir, chunki u adolatni ijtimoiy idrok etish va bu jarayonda yuristlarning rolini shakllantiradi. Axloqiy me'yorlar zo'ravonlik, manfaatlar to'qnashuvi va axloqsiz xatti-harakatlarning oldini olishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida qonuniylilikni mustahkamlaydi va ijro samaradorligini oshiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, yuristlarning axloqi, shuningdek, qonun va axloqiy qadriyatlarga rioya qilgan holda, insonning manfaatlarini himoya qilish jarayonida bildirilgan fikr va harakatlar uchun javobgarlikni o'z ichiga oladi. Odil sudlovdagi axloqiy me'yorlar advokatlar, sudyalalar, prokuratura xodimlarining va sud protsessining boshqa ishtirokchilari o'zlarining kasbiy faoliyati doirasida, o'zlarini qanday tutishlari kerakligini belgilaydigan qoidalar va xulq-atvor standartlari tizimidir.

Ushbu me'yorlar adolatni, halollikni va barcha ishtirokchilarning huquqlarini hurmat qilishni ta'minlashga qaratilgan. Axloq va adolat – halollik, mustaqillik, xolislik, huquqni hurmat qilish va adolat manfaati uchun harakat qilish majburiyati. Ushbu prinsiplar har bir yurist faoliyatining javobgarligi tushunchasini shakllantirish uchun asos bo'lib, uning institut sifatida ishonchni saqlashga yordam beradi. Axloqiy me'yorlarning muhim jihati bu ish jarayoniga bog'liq bo'lgan har qanday ma'lumotlarning mahfiyligini saqlash va mijozlarni himoya qilish, bu o'z navbatida xodim va mijoz o'rtasida ishonch muhitini yaratishga yordam beradi. Shuningdek, o'z faoliyati davomida yuridik soha vakillari manfaatlar to'qnashuvi holatlaridan qochish va yuqori professionallik standartlarini saqlab, qonun doirasida harakat qilishni buyuradi. Ushbu me'yorlarga rioya qilish nafaqat adolat sifatini, balki umuman yuridik tizimga jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga yordam beradi, bu ayniqsa huquqiy va axloqiy me'yorlar tez-tez tanqid qilinadigan zamonaviy jamiyat sharoitida juda muhimdir. Axloq qoidalari adolat tamoyillariga muvofiq harakatni ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida davlatning monopoliyasi shaxsning jamiyatdan uzoqlashishiga olib keladi, bu axloqsiz ko'rinishlarning tarqalishi uchun qulay muhitdir. Ushbu holatlar huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati sharoitida jazo vositasi emas, balki to'g'ri rivojlanish yo'lida qo'llanma bo'lib xizmat qiladigan yuristlarning kasbiy mavqeiga ta'sir qilishi mumkin emas edi. Yuristlarning kasbiy axloqiga bo'lgan ehtiyoj shu soha xodimlari faoliyatidagi eski tizimning salbiy ko'rinishlaridan imkon qadar tezroq xolos bo'lish, ularning faoliyatidagi axloqiy me'yorlarning ustuvorligini ta'minlash va turli xil axloqiy og'ishlarning oldini olish zarurati bilan bog'liq.[4] Texnologik o'zgarishlar va glaballashuv yangi muammolarni keltirib chiqaradigan zamonaviy yuridik amaliyot sharoitida axloqiy me'yorlarga rioya qilish ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi, chunki ular yuristlarning kasbiy obro'sini va ularning kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Sudyalalar Oliy Kengashi rasmiy sayti: <https://sudyalarioliykengashi.uz/>
2. Xalq so'zi gazetasining 2018-yil 10-oktyabrdagi soni: <https://xs.uz/uzkr/6531/>
3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. Toshkent, 2010-yil, 3-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining II Konferensiyasining 2013-yil 27-sentabrdagi (Advokatning kasb etikasi Qoidalari) qarori: <https://nrm.uz/>
5. А.А.Мухаммадиев, А.У.Эгамбердиев., Профессиональная этика юриста. Учебное пособие. Ташкент - 2016. С.166.